

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi899

Q.V.Yo'ldiyev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik930

I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari936



UO'K: 811.512.133'1

**ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA QO'LLANGAN FORS-TOJIKCHA SO'ZLARNING
TAHLILI MASALASI****ВОПРОС АНАЛИЗА ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКИХ СЛОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В
ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ****THE ISSUE OF ANALYSIS OF PERSIAN-TAJIK WORDS USED IN THE GHAZALS OF
ALISHER NAVOI****Abduvaliyeva Nodira Alisherovna** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya

Alisher Navoiy turkiy nom bilan atalgan eski o'zbek tilini tojik tili darajasidagi adabiy tilga aylantirishi va shu tilda o'zigacha deyarli yaratilmagan badiiy va g'oyaviy jihatdan yetuk asarlar yaratishni maqsad qilib qo'ygan edi. Navoiy "Xamsa", "Chor devon", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn" va shu kabi o'ttizdan ortiq asarlari bilan o'zbek adabiy tilining asoschisiga aylandi. Navoiy eng ko'p foydalangan va eng boy manba turkiy lahjalar bo'lgan. Ikkinchi manba-ilmiy risolalar va o'sha davr ziyolilarining og'zaki nutqidir. Navoiy g'azallarida uchraydigan tojikcha va arabcha so'zlar Navoiy davridagi ziyolilar tilida mavjud bo'lgan deb taxmin qilsa bo'ladi. Ma'lum bir sohaga oid so'zlarning lug'aviy tahlili mazkur so'zlarning rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda, lug'aviy birlik ma'nosida yuz bergan o'zgarishlarni kuzatib borishga, tillarning o'zaro munosabatlari hamda ta'siri masalalarini o'rganishga imkon yaratadi. Mazkur maqolada ham Alisher Navoiy g'azallarida qo'llanilgan fors-tojikcha so'zlarning leksik-semantik tadqiqi bayon etilgan bo'lib, hozirda iste'molda va iste'moldan chiqqan leksemalar qatnashgan g'azal baytlari ham keltirilgan.

Аннотация

Алишер Навои имел цель превратить староузбекский язык, называемый тюркским, в литературный язык на уровне таджикского языка и создать на этом языке художественно и идеологически зрелые произведения. Навои стал основоположником узбекского литературного языка, написав более тридцати произведений, таких как «Хамса», «Чор деван», «Маджолис ун-нафоис», «Мезон ул-Авзон», «Махбуб ул-Кулуб», «Мухокамат ул-Лугатайн» и другие. Тюркские диалекты были наиболее используемым и богатым источником Навои. Второй источник – научные трактаты и устная речь интеллектуалов того времени. Можно предположить, что таджикские и арабские слова, встречающиеся в навоийских газелях, существовали в языке интеллигенции навоийского времени. Лексический анализ слов, относящихся к определенной сфере, помимо предоставления информации об этапах развития и развития этих слов, дает возможность проследить изменения значения лексической единицы, изучить вопросы взаимодействия и влияния языков. В данной статье описывается лексико-семантическое исследование персидско-таджикских слов, используемых в газелях Алишера Навои, а также представлены стихи газелей с употребляемыми и неупотребляемыми лексемами.

Abstract

Alisher Navoi had the goal of transforming the old Uzbek language called Turkic into a literary language at the level of the Tajik language and creating artistically and ideologically mature works in this language. Navoi became the founder of the Uzbek literary language with more than thirty works such as "Khamasa", "Chor devan", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-Avzon", "Mahbub ul-Qulub", "Muhokamat ul-lughatayn" and others. Turkic dialects were the most used and richest source by Navoi. The second source is scientific treatises and oral speech of intellectuals of that time. It can be assumed that the Tajik and Arabic words found in Navoi's ghazals existed in the language of the intellectuals of Navoi's time. The lexical analysis of words related to a specific field provides information about the development and stages of development of these words, as well as allows to observe changes in the meaning of a lexical unit, to study the issues of interaction and influence of languages will give. This article covers the lexical-semantic study of Persian-Tajik words used in Alisher Navoi's ghazals, as well as the used and unused lexemes of ghazals.

Kalit so'zlar: Lug'aviy birliklar, tazkira, "Yoyi vahdat", lakuna, o'z qatlam, uyadosh so'zlar, o'zga til unsurlari, qo'shma so'z komponentlari, undov so'zlar, ko'makchi, bog'lovchilar, g'azalning qo'iyalanish sistemasi.

ILMIY AXBOROT

Ключевые слова: Словарные единицы, тазкира, «Ёйи вахдат», лакуна, собственный слой, вложенные слова, иноязычные элементы, составные компоненты слова, восклицательные слова, помощники, соединители, система рифмовки газели.

Key words: Vocabulary units, tazkira, "Yoi vahdat", lacuna, own layer, nested words, foreign language elements, compound word components, exclamatory words, helpers, connectors, rhyming system of the ghazal.

KIRISH

Jahon tilshunosligida tilning jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda tez o'zgaruvchan qatlami-leksik sathdagi o'zgarishlarni, har qanday tilning muayyan davrdagi umumiy holatlarini talqin etishda badiiy asarning muhim manba sifatidagi o'rni va ahamiyati badiiy asar tadqiqi doirasida bajarilgan barcha ishlarda e'tirof etilgan. Ayniqsa, alohida tanlangan ijodkor tilida qo'llangan leksik birliklarning semantik xususiyatlari va uslubiy imkoniyatlari tahlili orqali tilning lug'aviy-ma'noviy takomilini dalillash mavjud tadqiqotlarning asosiy mazmunini tashkil etadi, bu esa har qanday til tadriji to'liq asoslashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek navoiyshunosligida XX asrning 40-yillaridan boshlangan dissertasion tadqiqotlar silsilasi hozirga qadar yuzdan ziyod ishlarni qamrab oladi. Soha taraqqiyotida V.Abdullaev, A.Hayitmetov, S.G'anieva, A.Qayumov, Yo.Ishoqov, I.Haqqul, A.Hojiahmedov, Sh.Sirojiddinov, H.Jo'raev singari adabiyotshunos olimlarning xizmatlari katta.

Navoiy asarlarining leksik tizimi B.Bafoev tomonidan, arabizmlarning fonetik-morfologik va leksik-semantik tahlili esa A.Nishonov tomonidan o'rganildi. Shuningdek, Navoiy nasriy asarlarining leksik-stilistik xususiyatlari (X.Mamadov), sinonimlar masalasi (M.Rahmatullaeva), frazeologizmlarning leksik-grammatik tadqiqi (E.Umarov), "Farhod va Shirin" dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari (A.Karimov), zoonimlarning uslubiy xususiyatlari (B.Zaripov), Navoiy tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (Sh.Egamova), "Majolisun-nafois" asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika (Z.Isaqova), "Ilk devon"dagi arabcha so'zlarning leksik-semantik talqini (M.Tojiboeva), tarixiy asarlari leksikasi (D.Abduvalieva)ga doir tadqiqotlar ham navoiyshunoslikda tadqiqotimiz mavzusi qamrovida bajarilgan bo'lib, ular hozirgacha mavzuning navoiyshunoslik predmeti sifatida tanlanmaganligini tasdiqlaydi.

Bugunga qadar Alisher Navoiy g'azallari M.Akbarova, F.Hayitmetov, S.Sotiboldieva, N.Bozorova, N.Umarova, S.O'tanovlar tadqiqotlari obyekti sifatida tanlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Navoiy g'azallarida qo'llangan o'zlashma so'zlar – forsha-tojikcha o'zlashmalarning semantik xususiyatlari, ularning qo'llanish chastotasi, g'azal matnida o'zlashmalar miqdorining g'azal qofiyasi va radifga bog'liqligi aniqlandi. Milliy tilning tarixiy leksikonidagi yangi so'z va tushunchalarning paydo bo'lish dinamikasi, eski o'zbek tilining leksik tizimida yuz bergan o'zgarishlar, badiiy nutqda (g'azallarda) qo'llangan lug'aviy birliklar va ularda ma'noning voqelanish jarayoniga xos lisoniy qonuniyatlar ochib berilgan bo'lib, komponent tahlil, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, stilistik, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alisher Navoiy turkiy nom bilan atalgan eski o'zbek tilini tojik tili darajasidagi adabiy til darajasiga yetkazish va shu tilda o'zigacha deyarli yaratilmagan badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratishni maqsad qilib qo'ygan edi. Navoiy "Xamsa", "Chor devon" kulliyoti, tazkiralari, ilmiy va falsafiy-didaktik, tarixiy asarlari bilan o'zbek adabiy tilining asoschisiga aylandi. Shoir o'zbek adabiy tilini qaysi manbalar hisobiga boyitgan bo'lishi mumkin? Taniqli navoiyshunos olim Alibek Rustamovning fikricha, Navoiy eng ko'p foydalangan va eng boy manba turkiy lahjalar bo'lgan. Ikkinchi manba ilmiy risolalar va o'sha davr ziyolilarining og'zaki nutqidir. Navoiy g'azallarida uchraydigan tojikcha va arabcha so'zlar Navoiy davridagi ziyolilar tilida mavjud bo'lgan, deb taxmin qilsa bo'ladi. Chunki og'zaki tilda ishlatilmasligi aniq bo'lgan o'zga til unsurlari Navoiy tilida ham uchramaydi. Turkiy lahjalaridagi lug'aviy va grammatik unsurlar Navoiy g'azallarida chegaralanmagan holda, tojik va arab tillariga oid unsurlar chegaralangan holda o'tgan [2;40], deyish mumkin.

Ikki tillilik yozma adabiyotda ham o'z aksini topdi. Bu davr o'zbek adabiy tiliga fors-tojik tilining ta'siri kuchli edi. O'rta asrlarda, xususan, XV asrda yashagan ijodkorlarning ko'pchiligi o'z asarlarini har ikki tilda yaratganliklari ma'lum [4;108]. Navoiy g'azallarida ishlatilgan tojikcha so'z va

iboralarni Xuroson elining ikki tilliligi bilan ham isbotlash mumkin. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida shunday yozadi: "...turkning ulug'idin kichigiga degincha va navkaridin begiga degincha sart (fors-tojik) tilidin bahramanddurlar. Andoqki, o'z xurd ag'volig'a ko'ra ayta olurlar, balki ba'zi fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim forsiy til bila rangin ash'or va shirin giffor zohir qilurlar" [1;32].

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining ravnaqi uchun kurash olib bordi. U xalq jonli tilini qunt bilan o'rgandi, uning boyliklari zamirida adabiy tilni boyitdi. Bu bilan cheklanmasdan, arab, fors-tojik tillari boyliklaridan ham samarali foydalandi. Ona tili uchun kurash jarayonida davlat, adabiyot va fan tili bo'lgan fors-tojik tilining ustun tomonlarini ham ko'rsatdi.

Ma'lumki, fors-tojik tilida yaratilgan adabiyot o'zbek tilidagi adabiyotga nisbatan boyroq tajribaga ega edi. Fors-tojik tilining grammatik qonun-qoidalari birmuncha ishlangan va hatto qofiya-lug'at kitoblari ham yaratilgan edi. Binobarin, fors-tojik tilida o'rtamiyona g'azallar ijod etish birmuncha yengilroq va osonroq edi. Shuning uchun ham ko'pgina o'zbek yozuvchilari fors-tojik tilida g'azallar ijod qilganlar. Buni Navoiyning o'zi ham tan olib, "Muhokamat ul-lug'atayn"da shunday yozadi: "Bas, bu haysiyatlardan andoq ma'lum bo'lurkim, bu tilda (o'zbek tilida) g'olib alfoz va ado ko'pdur. Muni xush ayanda tartib va raboyanda tarkib bila bog'lamog'ining dushvorligi bor. Muftadiy tab'i ul nazmni dushvorlig' bila bog'lamoqdin ko'ft topib, mutakaffir bo'lur va osonroq sari mayl qilur. Chun necha qatla bu nav' voqe bo'ldi, tab'i xo'y qildi. Chun tab'i mu'tod bo'ldi, o'z mu'todin qo'yub, g'ayri mu'todga kim, mushkulroq ham bo'lg'ay, mayl qilmog'i mutaazzirdir" [1;47].

Bundan tashqari, fors-tojik tilining nufuzi ancha kuchli edi. Bu haqda Alisher Navoiy shunday yozadi: "...turk ulusining xushta'blari majmuni sart tili ila nazm aytqaylar va bilkul turk tili bila aytmag'aylar, balki ko'pi aytmag'aylar va aytsalar ham sort turk tili bila nazm aytqondek fasih turklar qoshida o'quy va o'tkara olmag'aylar va o'qusalar har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo'lg'ay" [1;41].

Navoiy "forsiy so'z ustalari va afsonalarga pardo beruvchilar" ijodini tanqidiy o'rganib, ulardagi qimmatli tomonlarni, go'zal jumalarni ona tiliga olib kirdi. Natijada, o'zbek adabiy tilini forsiy til darajasiga ko'tardi.

Shoir o'z asarlarida fors-tojik so'zlarini turli uslubiy maqsadlarda ishlatish bilan birga, ayrim grammatik shakllardan ham samarali foydalandi. "Yoyi vahdat" (noaniqlik belgisi)ni samarali ishlatganini ko'ramiz: mehribone (qandaydir mehribon); jame (qandaydir may). Fors-tojik tiliga xos -iy, -var, -sar, -nak, -fom, -vash kabi yasovchi affikslardan samarali foydalanib, quyidagi yasama leksemalarni hosil qildi: zindoni (Hajr zindonidin ozod et menikim, yo'q bukun / Hech zindoniyki maxlas birla hurram bo'lmadi: NSh,617-g', 623-b.), donishvar (NSh, 431), ko'hsar (G'S, 552), dardnok (G'S, 464), g'amnok (G'S, 441), parivash (NSh, 401) kabi.

O'zbek adabiy tiliga fors-tojik tilidan kirgan so'zlar dastlabki davrlarda, ayniqsa, XIV-XV asrlar orasida ancha ko'p bo'lgani kuzatiladi. Ammo o'zbek tiliga kirib, bu tilda qo'llangan barcha so'zlar ham hozirgacha saqlangan emas. Eski o'zbek tilida qo'llangan bir qator fors-tojikcha so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi. Masalan, Alisher Navoiy tilida ishlatilgan mana bu tojikcha so'zlar hozirda iste'moldan chiqqan: *abr* (*bulut*), *abroshim* (*ipak*), *abru* (*qosh*), *avrang* (*taxt*), *anboz* (*sherik*, *juft*), *anbacha* (*to'rva*, *xalta*), *anbarkash* (*xas-cho'p*, *axlat tashuvchi*), *angubin/angabin* (*asal*, *bol*), *afsor* (*no'xta*, *jilav*), *axtar* (*yulduz*), *badraqa* (*yo'l boshlovchi*, *karvon boshlig'i*), *bahma* (*charm qo'iqop*), *bed/bid* (*tol daraxti*), *besha* (*to'qay*, *changalzor*), *gaziston* (*yulg'unzor*), *gazdasta* (*qamchi*), *daryokash* (*kemachi*), *daryo'za* (*gadoylik*, *gado*), *dashtobon* (*qo'riqchi*, *nazoratchi*) va boshqalar.

Ma'lumki, taqlidiy so'zlar aksariyat tillar uchun lakuna hisoblanadi. Bu holatni Navoiy o'z davridayoq zukko tilshunos sifatida fahmlaydi va jonivorlar ovozig'a taqlid asosida turkiy tilda yasalgan bir qator fe'llarning forsiy tilda uchramasligini asosli dalillaydi: "*Jonivorlarning dovushidan bir otning kishnamagi [kišnamäk]ga šiha deb ot qo'yibdilar (forslar). Tuyanining bo'zlamog'iga [bozlamog]yu sigirning mungramagi [münrämäk]ga va eshakning ingramog'iga [inramag]yu itning... ulimog'i [ulumaq]gaforschada so'z yo'qdir*" [3;193].

O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar, shu bilan birga, so'z yasovchi qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday so'zlar avvalo mavhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinlashdi. Buning sababi to'g'risida o'zlashma so'zlarning tilda ko'p asrlik nutq jarayoni va til tizimidagi sinonimik va

ILMIY AXBOROT

antonimik munosabatlar, bir soʻzning faollashuvi, ikkinchi soʻzning isteʼmoldan chiqishi kabi holatlar hisobiga barqaror oʻrinlashib qolgan deyish mumkin. Turkiy va forsiy tillarning bunday quramallashuvi X asrgacha sezilarli darajada davom etdi.

Navoiy gʻazallarida forsiy soʻzlar koʻp uchraydi. Shoir soʻz takroridan qochish uchun oʻz til birliklari muqobili boʻlgan oʻzga til leksik unsurlarini oʻz asarlarida faol qoʻllaydi. Masalan, quyidagi baytda *dasht*, *samum*, *quyun* kabi uch til leksik birliklari semantik jihatdan oʻzaro ekvivalent boʻlib, hijron vodiysida sargashta oshiq holatini yorqin ifoda etadi:

Ishq dashtining samumidin gumon etgay quyun,

Vodiyi hijron aro koʻrgan bu sargardon oʻtin. (GʻS, 503-gʻ., 524-b.)

Baytda qoʻllangan uch soʻzdan faqat *dasht* soʻzigina forscha hisoblanadi.

Quyidagi baytda taʼlim sohasiga oid uyadosh soʻzlar qoʻllanishini koʻramiz:

Fasonam yozgʻuchi, bilkim, bitik uzra sochar kuldek,

Kuyub sochilgʻusi kogʻazga ilgingdin qalam bir kun.

(GʻS, 501-gʻ., 522-b.)

Mazkur baytda *yoʻzgʻuchi*, *bitik*, *kogʻaz*, *qalam* soʻzlari oshiqlikni oʻziga qismat qilib olgan, mahbuba firoqida umidsizlikka tushgan lirik qahramonning fasona yozuvchisiga murojaati ifoda etilgan. Bu oʻrinda forscha *kogʻaz* soʻzi bitik va qalam soʻzlari bilan semantik jihatdan bir uyani tashkil etadi.

“Favoyid ul-kibar” devonining 5-gʻazalida forscha va arabcha soʻzlar nisbatini, quyidagi qiyosi orqali gʻazaldagi oʻzlashmalarning faol qatlamini aniqlash mumkin. Gʻazal jami 127ta soʻzdan tashkil topgan boʻlib, ulardan 36 tasi arabcha, 23 ta soʻz esa fors tiliga mansub (soʻzlar hisob-kitobida har bir soʻz alohida shakl sifatida sanoqqa kiritildi; bu jihatdan qoʻshma soʻz komponentlari nazarda tutilmoqda). Qolgan leksik birliklar turkiy qatlamga mansub. Bu qatlamning asosiy tarkibi undov soʻzlar, koʻmakchi va bogʻlovchilar hissasiga toʻgʻri kelishini taʼkidlash zarur. Gʻazal mazmunini chuqur ifodalash uchun shoir forscha soʻzlardan koʻra arabcha leksemalarning ifoda imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Bu miqdorni barcha gʻazallar uchun birdek deb boʻlmaydi, chunki gʻazallarda oʻzlashmalar miqdori jihatdan keskin farqlanadi. Chunonchi:

Ey, koʻngul ichra may(f)i vasl(a) ing uchun kom(f) tamanno(a), (8:2a; 2f)

Jon(f)gʻa ham furqat(a)ing oʻti aro bu xom (f) tamanno(a). (8:2a; 2)

Garchi(f) vasl(a)ingni tilab, jon(f) im aro qolmamish orom(f), (7:1 a; 3 f)

Lekf topmish bu hazina jon(f) aro orom(f) tamanno(a). (8:2 a;3 f)

Tun-u kun bazmi(f) visol(a)ing aro usruklar elidin (7:1 a;1 f)

Meni labtashnaye (f) maxmur(a)gʻa bir jom(f) tamanno(a). (6:2 a;2 f)

Garmravlargʻa(f) agar hamqadam oʻlmoqqa had(a)im yoʻq, (6:1 a;1 f)

Ham(a) alarning soʻngicha urgʻali bir gom(f) tamanno(a). (7:2 a;1 f)

Kimki ul vahm(a)u xayol(a)i aro zot(a)ingni kiyurdi, (7:3 a;0 f)

Qilmadi gʻayri(a) xayolot(a) ila avhom(a) tamanno(a). (6:4 a; 0 f)

Munglugʻ olinggʻa kelibmen, manga rahm(a) aylaki, boʻlmas (7:1 a;0 f)

Shohdin(f) boʻyla gadolargʻa(f) juz(a) inʼom(a) tamanno(a). (6:2 a;2 f)

Tong emas bodiya(a)i ishq(a)inga kirmakki, qilibmen (6:2 a;0 f)

Bogʻlamoq Kaʼba(a)i koʻyung sari ehrom(a) tamanno(a). (6:3 a;0 f)

Hol(a)im ogʻoz(f)ini bilmon, karam(a) et rahm(a) qilibkim, (7:3 a;1 f)

Qilmisham xayr(a) ila koʻying sari anjom(a) tamanno(a). (7:3 a;0 f)

Nuru(a) zulmat(a)ni Navoiy(f) netar, ul yuz keraku zulf(f) (8:2 a;2 f)

Kim budur koʻnglida gar(f) subh(a)u gar(f) shom(f) tamanno(a). (8:2 a;3 f)

Shoirning “Qaro koʻzum” gʻazali jami 100 ta soʻzdan iborat boʻlib, unda 23 ta forscha, 18 ta arabcha va 59 ta turkiy soʻz bor. Ushbu maʼlumotlar asosida aytish mumkinki, qofiya va radif turkiy soʻzlardan tashkil topsa, matn ichidagi turkiy soʻzlar miqdori ham ortib boradi. Eʼtiborli jihati shundaki, gʻazal mazmuni qaysi til birliklari qoʻllanishini ham belgilaydi.

XULOSA

Shoirning barcha gʻazallarida forscha soʻzlar salmogʻi bir xil emas. Baʼzan arabiy oʻzlashmalar, baʼzan forsiy oʻzlashmalar salmoq kasb etadi. Buni shunday izohlash mumkinki, gʻazalning qofiyalanish sistemasi aynan qaysi til birliklaridan tanlanishi koʻp hollarda bu muammoni

hal qiladi. G'azal tarkibining markaziy unsuri bo'lgan qofiyaga muvofiq ravishda g'azaldagi lug'aviy birliklar tanlanadi.

Bir tildan boshqa tilga, jumladan, boshqa tillardan o'zbek tiliga so'z o'zlashishi yozma yoki og'zaki ko'rinishda yuz berdi. Masalan, arabcha o'zlashmalarning ko'pchilik qismi yozma manbalar orqali o'tdi. Tojikcha so'zlarning o'zlashishida esa og'zaki nutq ham muhim rol o'ynadi. Fors tilining xalqimiz hayotida o'z mavqeini yo'qota borishi O'rta Osiyoda Uyg'onish (renessans) davrining buyuk vakili Alisher Navoiy davrigacha davom etdi. Keyingi davrlarda devon va asarlarning fors tilida yaratilishi shoirlarimizning zullisonaynlik mahoratini ko'rsatish maqsadidagina bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn / Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili, talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2017. –B.47.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent.: O'zbekiston, 1992. –B.40.
3. Umarova N. Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Farg'ona, 2021. – B.193.
4. Usmonov S. O'zbek tilining lug'at sostavida fors-tojik va arabcha so'zlar: Navoiyga armug'on.Turkcha (o'zbekcha) forscha (tojikcha) til aloqalari. –Toshkent: Fan, 1968. –B.108.